

## Suv – hayot manbai

Suhbat-ma'ruza qiziqarli faktlarga boyligi, talaba diqqat – e'tiborini tortishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday yo'sindagi muloqotlar talaba va pedagog uchun ham ayni muddaodir. 2018 - yil 20 - noyabr kuni 3 - TTJda "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasida professor-o'qituvchilari dots. B. Sh. Matyakubov, dots. A.B.Mamataliev, ass. Sh.X.Mardiyev tomonidan "Suv-hayot manbai" mavzusida suhbat o'tkazildi. Suhbat mavzusi bo'yicha taqdimot ass. Sh. Mardiyev tomonidan talabalar e'tiboriga havola qilindi. Dotsent A.B.Mamataliyevning suvning naqadar bebaho ne'matligi, uning insoniyat hayotidagi o'rni va umuman tiriklikning asosi ekanligi to'g'risidagi qiziqarli ma'lumotlari talabalarda katta qiziqish uyg'otdi. Suvdan foydalanishda madaniyatli munosabatda bo'lish kerakligi, bu sohada biz bo'lg'usi mutaxassislar targ'ibotchi bo'lishimiz kerakligi ta'kidlandi. Tadbir juda savol-javoblarga boy qiziqarli darajada o'tkazildi.



**Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasida assistenti Mardiyev Shaxboz axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**